I.SANOAT

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma‘lumotlariga ko‘ra, 2023- yil 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni 3 170 taga yetdi. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 772 ta yoki 19,6 foizga kamaygan.

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatda 555 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo‘lib, ularning 15,3 foizi Karmana tumani, 13,0 foizi Xatirchi tumani, 13,0 foizi Navoiy shahri, 12,4 foizi Navbahor tumani, 7,7 foizi Zarafshon shahri hissalariga to‘g‘ri keldi.

2023- yil 1- oktabr holatiga shahar va tumanlar kesimida faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlikda

	faoliyat yuritayotgan	*shundan,*		*2023- yil yanvar- sentabr oylarida tashkil etilgan*
		yirik korxonalar	*kichik biznes*	
Jami	**3 170**	**26**	**3 144**	**555**
Navoiy sh.	645	12	633	72
Zarafshon sh.	287	1	286	43
G‘ozg‘on sh.	220	-	220	39
Konimex t.	91	1	90	30
Qiziltepa t.	332	2	330	32
Navbahor t.	269	3	266	69
Karmana t.	477	5	472	85
Nurota t.	251	1	250	41
Tomdi t.	95	1	94	15
Uchquduq t.	152	-	152	57
Xatirchi t.	351	-	351	72

Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik
(2023- yil 1- oktabr holatiga)



Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik
(2023- yil yanvar- sentabr)



Sanoat – *bu xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o‘zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog‘i hisoblanadi.*

2023- yil yanvar- sentabr oylarida sanoat mahsuloti hajmi 72 996,6 mlrd. so‘mni yoki o‘tgan yilning shu davriga nisbatan fizik hajm indeksi (o‘sish sur‘ati) 105,8 foizni tashkil etdi.

Jumladan, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarda ishlash 9 029,3 mlrd. so‘mni yoki o‘tgan yilning shu davriga nisbatan fizik hajm indeksi (o‘sish sur‘ati) 94,8 foizni, qayta ishlash sanoati 59 097,0 mlrd. so‘mni yoki o‘tgan yilning shu davriga nisbatan fizik hajm indeksi (o‘sish sur‘ati) 106,8 foizni, elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havonikonditsiyalash 4 822,3 mlrd. so‘mni yoki o‘tgan yilning shu davriga nisbatan fizik hajm indeksi (o‘sish sur‘ati) 126,5 foizni, suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish 48,0 mlrd. so‘mni yoki o‘tgan yilning shu davriga nisbatan fizik hajm indeksi (o‘sish sur‘ati) 175,8 foizni tashkil etdi.

Hisobot davrida 2 901,6 mlrd. so‘mlik iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarilib, 2022- yil yanvar- sentabriga nisbatan o‘sish sur‘ati 105,1 foizga to‘g‘ri keldi.

Jumladan, 1 547,0 mlrd. so‘mlik oziq-ovqat mahsulotlari, aroq-vino mahsulotlari va pivo, 1 354,6 mlrd. so‘mlik nooziq-ovqat mollari (2022- yil yanvar- sentabriga nisbatan mos ravishda 107,2 % va 102,5 %) ishlab chiqarildi.

.

2023- yil yanvar- sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsulotini ishlab chiqarish

	mlrd. so‘m	*fizik hajm indeksi (o‘sish sur‘ati, % da)*
I. Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo‘yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi	**72 996,6**	**105,8**
Tog‘ - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	**9 029,3**	**94,8**
ulardan:		
Metall rudalarini qazib olish	8 781,4	96,4
Boshqa turdagi tog‘-kon sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish	247,9	55,9
Qayta ishlash sanoati	**59 097,0**	**106,8**
undan:		
Oziq - ovqat mahsulotlari, ichimliklar tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	1 773,7	113,3
To‘qimachilik mahsulotlari, kiyimlar, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	2 203,3	108,5
Yog‘och va po‘kak buyumlar, pohol va to‘qish uchun materiallardan buyumlari, qog‘oz va qog‘oz mahsulotlari, mebellar ishlab chiqarish	115,9	130,6

davomi

	mlrd. so‘m	*fizik hajm indeksi (o‘sish sur‘ati, % da)*
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	21,2	160,4
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	1,8	148,3
Kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	4 490,2	99,8
Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	1,6	36,6
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	1 935,4	121,3
Metallurgiya sanoati	44 544,4	106,9
Mashina va uskunalardan tashqari, tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	2 408,1	91,3
Kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	86,6	76,6
Elektr uskunalar ishlab chiqarish	411,2	2,8 m.
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	576,1	51,8
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	415,6	74,4
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	1,7	7,7
Mashina va uskunalarni ta‘mirlash va o‘rnatish	110,2	54,7
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash	**4 822,3**	**126,5**
Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish	**48,0**	**175,8**
II. Iste‘mol tovarlarini ishlab chiqarish	**2 901,6**	**105,1**
shu jumladan:		
oziq-ovqat tovarlari	1 547,0	107,2
nooziq-ovqat tovarlari	1 354,6	102,5

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishi





Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, 59 097,0 mlrd. so‘mni, jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 80,9 foizni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish sanoatida - 75,8 foizga, elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashda - 26,5 foizga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatda – 6,8 foizga o‘sishi kuzatildi.

Shuningdek, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 5,2 foizga pasayishi kuzatildi.

Yanvar-sentabr oylarida iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2 901,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 5,1 foizga oshgan holda uning jami sanoatdagi ulushi 4,0 foizni tashkil etdi.

Yanvar- sentabr oylarida iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi
(jami iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan, % da)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsuloti turlarini ishlab chiqarish (yirik korxonalar bo‘yicha)

	O‘lchov birligi	*2023- yil yanvar-sentabr*	*O‘sish sur‘ati, % da*
Tog‘- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash			
Chaqiq tosh (sheben)	*tn.*	31 349,1	142,4
Qayta ishlash sanoati			
Ammoniy sulfat	*ming. tn. azot*	2,8	108,0
Natriy gidroksidi (kaustik soda)	*ming. tn.*	42,3	91,3
Xlor	*tn.*	1 950	153,1
Ammoniy nitrat (ammoniyli selitra)	*ming. tn. azot*	198,7	86,7
Argon	*ming.m^3*	156,3	176,0
Mochovina (karbamid)	*ming. tn. azot*	160,5	86,7
Suvsiz ammiak	*ming. tn*	505	85,1
Portlandsement	*tn.*	2 219 250	95,5
Vodorod xlorid	*ming. tn.*	38,2	118,9
Sement, beton yoki sun‘iy toshdan qurilish uchun g‘isht va bloklar	*tn.*	18 941,6	109,8
Plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar	*tn.*	5 776,5	124,0
Yogurt	*tn.*	17,8	124,7
Uzoq saqlanmaydigan xamirdan tayyorlangan qandolat mahsulotlari, tortlar va pirojniylar	*tn.*	50,1	116,1
Sariyog‘	*tn.*	3,3	101,9
Ishlov berilgan suyuq sut	*tn.*	407,5	91,4
Tvorog va tvorogdan mahsulotlar	*tn.*	65,1	129,8
Boshqa guruhlarga kiritilmagan, tarkibida asal, tuxum, pishloq yoki mevalar bo‘lmagan uzoq saqlanmaydigan boshqa non mahsulotlari	*tn.*	514,2	107,5

Azot ishlab chiqarish

(2023- yilning yanvar-sentabr oylarida)

Azot – rangsiz, hidsiz gaz bo‘lib havoda erkin holda uchraydi va sanoatda suyultirilgan havoni parchalab olinadi.





Plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar ishlab chiqarish

(*2023- yilning yanvar-sentabr oylarida*)

Plastmassa quvurlar – asosan, suv bilan ta'minlash va kanalizatsiya tizimlarida qo‘llanadi.



** tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko‘ra*

Uglerod dioksidi ishlab chiqarish

(2023- yilning yanvar-sentabr oylarida)

Uglerod dioksidi – gazsimon uglerod dioksid suyuqligidan tashkil topgan (karbonat angidrid, karbon dioksid) bo'lib, ammiak chiqindi gazlar, shuningdek, boshqa yonish mahsulotlar (past harorat suyuqlik, yuqori bosim suyuqlik va gaz) asosida olinadi.



Vodorod xlorid (xlorid kislota) ishlab chiqarish

(2023- yilning yanvar-sentabr oylarida)

Vodorod xlorid – xlorning eng muhim birikmalaridan biri bo'lib o'tkir hidli rangsiz gaz. U bilan nafas olinganida nafas yo'llarini yallig'lantiradi va bo'g'adi.



** tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra*

O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 foizni (2022- yilning yanvar-sentabr oylarida – 0,3 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 9,8 foizni (10,7 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 83,1 foizni (82,5 %) va quyi texnologiyali – 7,0 foiz (6,5 %) ni tashkil etdi.



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining asosiy ko‘rsatkichlari

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o‘sish sur’atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarilishida mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 335 ta loyiha bo‘yicha 3 854,8 mlrd. so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliylashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 27,0 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi. Shu bilan birga, 887 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi.

	2022- yil yanvar- sentabr	*2023- yil yanvar- sentabr*
Loyihalar soni, birlik	265	335
Korxonalar soni, birlik	60	76
Ishlab chiqarish hajmi, mln. so‘m	2 351 406,2	3 854 815,6
Eksport qilingan mahalliylashtirilgan mahsulot hajmi, ming. AQSH doll.	10 106,9	26 954,7
Yaratilgan yangi ish o‘rinlari, birlik	212	887

2023- yil yanvar- sentabr oylari yakunlari bo‘yicha hududlar kesimida sanoat mahsulotlari hamda xalq iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarish

	Sanoat mahsuloti		*Iste‘mol mahsulotlari*		*Jami sanoatdagi kichik biznes ulushi, % da*
	mlrd. so‘m	*fizik hajm indeksi (o‘sish sur‘ati,) % da*	*mlrd. so‘m*	*o‘sish sur‘ati, % da*	
Jami	**72 996,6**	**105,8**	**2 901,6**	**105,1**	**7,6**
Navoiy sh.	62 141,8	106,3	521,8	102,7	1,7
Zarafshon sh.	420,5	108,5	207,1	102,3	99,6
G‘ozg‘on sh.	84,4	106,3	32,0	100,3	100,0
Karmana t.	6 687,8	101,8	540,1	120,7	23,5
Konimex t.	514,0	108,5	76,6	103,7	40,6
Qiziltepa t.	1 294,4	108,0	427,3	92,2	57,4
Navbahor t.	677,0	104,0	315,5	103,4	50,6
Nurota t.	295,8	107,2	216,5	104,1	86,1
Tomdi t.	44,6	108,2	29,7	102,9	100,0
Uchquduq t.	262,3	106,4	81,7	106,3	100,0
Xatirchi t.	574,0	108,2	453,3	109,5	98,2

Konimex tumanida (2022- yilning yanvar- sentabr oyiga nisbatan 108,5 %), Zarafshon shahrida (108,5 %), Xatirchi tumanida (108,2 %), Uchquduq tumanida (106,4 %), Navoiy shahrida (106,3 %) hamda G‘ozg‘on shahrida (106,3 %) sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi (o‘sish sur‘ati) viloyat ko‘rsatkichidan (105,8 %) yuqoriligini qayt etishimiz mumkin.

Iste‘mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Karmana tumanida (2022- yilning yanvar- sentabr oylariga nisbatan 120,7 %), Xatirchi tumanida (109,5 %) hamda Uchquduq tumanida (106,3 %) sezilarli darajada oshdi.



2023- yil yanvar- sentabr oylari yakunlari bo‘yicha hududlar kesimida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari hamda xalq iste‘mol mollari ishlab chiqarish

	Sanoat mahsulotlari, ming so‘m		Xalq iste‘mol mollari, ming so‘m	
	2022	2023	2022	2023
Jami	**60 215,6**	**68 670,5**	**3 191,3**	**2 729,6**
Navoiy sh.	349 528,9	393 588,8	4 880,2	3 305,2
Zarafshon sh.	3 532,0	4 880,7	2 669,6	2 376,0
G‘ozg‘on sh.	5 529,7	9 218,1	2 259,0	3 488,1
Karmana t.	45 326,6	48 857,6	6 002,7	3 946,0
Konimex t.	11 727,9	13 750,1	2 048,5	2 047,7
Qiziltepa t.	6 547,3	8 048,9	2 763,5	2 667,5
Navbahor t.	4 638,9	5 657,1	2 413,2	2 636,5
Nurota t.	2 736,4	3 336,4	2 475,7	2 442,4
Tomdi t.	2 241,9	2 850,4	2 061,7	1 899,2
Uchquduq t.	5 869,3	6 694,8	2 010,9	2 084,7
Xatirchi t.	2 061,1	2 718,2	1 968,1	2 146,4



2023- yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish, ming so‘m



2023- yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish, ming so‘m



2023- yil yanvar- sentabr oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga iste‘mol tovarlari ishlab chiqarishning yuqori hajmi Karmana tumaniga (3 946,0 ming so‘m), Navoiy shahriga (3 305,2 ming so‘m), Qiziltepa tumaniga (2 667,5 ming so‘m), Zarafshon shahriga (2 376,0 ming so‘m), Nurota tumaniga (2 442,4 ming so‘m) va Navbahor tumaniga (2 636,5 ming so‘m) to‘g‘ri keldi.

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 4 314,3 mlrd. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

O‘tgan yilda qo‘shma korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 4,6 foizni tashkil etgan bo‘lsa, hisobot davrida bu ko‘rsatkich 5,9 foizni tashkil etdi.

	Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish		shu jumladan, chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarda	
	mlrd. so‘m	Fizik hajm indeksi (o‘sish sur‘ati), % da	mlrd. so‘m	Ulushi, % da
Jami	**72 996,6**	**105,8**	**4 314,3**	**5,9**
Navoiy sh.	62 141,8	106,3	3 312,7	5,3
Zarafshon sh.	420,5	108,5	21,5	5,1
G‘ozg‘on sh.	84,4	106,3	6,1	7,2
Karmana t.	6 687,8	101,8	880,5	13,2
Konimex t.	514,0	108,5	12,7	2,5
Qiziltepa t.	1 294,4	108,0	3,5	0,3
Navbahor t.	677,0	104,0	44,6	6,6
Nurota t.	295,8	107,2	5,1	1,7
Tomdi t.	44,6	108,2	-	-
Uchquduq t.	262,3	106,4	0,9	0,3
Xatirchi t.	574,0	108,2	26,7	4,7

Sanoat mahsulotlari hajmida chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning ulushi, % da

2022- yil yanvar- sentabr



2023- yil yanvar- sentabr



Viloyatning boshqa korxonalari
Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlari sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, % da



Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesni hissasi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub‘ektlari tomonidan 5 562,3 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi hamda kichik korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 7,6 foizni tashkil etdi.

Kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi, mlrd. so‘m



2023- yil yanvar- sentabr oylarida hududlar bo‘yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, % da

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulush Uchquduq tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi (100,0 %), Tomdi tumanida (100,0 %), G‘ozg‘on shahri (100,0 %), Zarafshon shahri (99,6 %), Xatirchi (98,2 %), Nurota (86,1 %), Qiziltepa (57,4 %), Navbahor (50,6 %), Konimex (40,6 %) tumanlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kam ulush Navoiy shahriga (1,7 %) hamda Karmana tumaniga (23,5 %) to‘g‘ri keldi.

Statistik ko‘rsatkichlarga tushuntirish

Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi - korxona tomonidan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar, yarim tayyor, chetga sotishga mo‘ljallangan, o‘zining nosanoat bo‘linmalariga va kapital qurilishga mo‘ljallangan mahsulotlar hajmini o‘z ichiga oladi; ishlab chiqarilishi hisobot davrida tugallanmagan uzoq muddatli mahsulotlarni ishlab chiqarish bo‘yicha ishlar; sanoat tusidagi ishlar (xizmatlar);

Sanoat ishlab chiqarishida o‘zgarish indekslari - solishtirma davrlarda mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) fizik hajmining o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir;

Iste‘mol mollari - asosan shaxsiy iste‘mol yoki foyda olish bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa maqsadlarda foydalanadigan sanoat mahsulotlari; iste‘mol mollari ishlab chiqarish hajmi amaldagi narxlarda (QQS va aksizlar bundan mustasno) hisoblab chiqiladi;

Natura ko‘rinishida sanoat ishlab chiqarish hajmi - boshqa korxonalarga jo‘natish uchun yoki ishlab chiqarishga mo‘ljallangan mahsulotlarni, shu jumladan korxonaning sanoat ehtiyojlari uchun sarflangan mahsulotlarni o‘z ichiga oladi, ya‘ni yalpi mahsulot;

Mahalliylashtirish darajasi - ishlab chiqarishda ishlatiladigan mahalliy materiallar, mehnat va intellektual resurslarning ulushini belgilaydi; mahalliylashtirish darajasini hisoblashda xarajatlar, soliq to‘lovlari va ishlab chiqarish jarayoniga bevosita aloqador bo‘lmagan boshqa imtiyozlar hisobga olinmaydi;

Mahsulot sotish hajmi - savdo narxlarida keltiriladi (QQS va aksiyalar bundan mustasno).